

DEYKSISNING MUHIMLIGI VA SAMARALI NUTQIY MULOQOT
JARAYONINI TASHKILLASHDAGI O‘RNI

Valiyeva Dildora Kamalovna

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada samarali nutqiy muloqotni tashkil qilishda til normalari va xushmuomalalik tamoyillariga rioya etish, deyxis va nutqiy muloqot matni yohud matnda mazmunning ifoda topishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan. Shu bilan birga, deyktik iboralar ma‘nosining nutq sub‘yekti- so‘zlovchining kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq holda o‘zgarib borishini talqin qilgan bir nechta tilshunoslarning fikrlari o‘rganib chiqilgan. Bu qoidalar o‘z navbatida chuqur munosabatlarga yo‘naltirilgan nutqiy muloqot kontsepsiyasini rivojlantirishini hisobga olgan holda, nutqiy muloqot jarayonida holatga mos tilni qo‘llash va xushmuomalalik ko‘rsatish xulq atvori muvaffaqiyatning asosiy elementi ekanligi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *deyxis, matn, muloqot, tadqiqot, xushmuomalalik, konsepsiya, ijobiy, salbiy, kontekst, individualism, xulq-atvor.*

Deyktik belgilar tasnifi masalasi uzluksiz muhokama qilinib kelinmoqda. Ko‘pchilik tilshunoslar an‘anaga binoan shaxs, makon va zamon deyksislarini farqlab kelishmoqda. Ammo ayrim tilshunoslar bunday tasnifga unchalik qo‘shilmaydilar. Ular, deyxis va modallik hodisalarini yagona maydonga birlashtirish harakatida bo‘lib, modal deyksisni alohida o‘rganishni taklif qilishmoqda. Modal deyksisi vositasida so‘zlovchi mavjud va tasavvurdagi vaziyatlarni nisbatan baholaydi. Sotsial deyksisni alohida kategoriya sifatida ajratish va uning vositasida muloqot ishtirokchilarining bir-biriga nisbatan ijtimoiy mavqeyini belgilash imkoniyatlari haqida ko‘p marotaba gapirilgan. Bundan tashqari, CH.Fillmor, R.Lakoff, V.I.Shaxovskiy, A.V.Kravchenko kabi olimlar, muloqot matnida suhbatdoshlarning hususiy munosabatlari o‘z aksini topishini hisobga olib, emotsional deyksisni ham alohida o‘rganish g‘oyasini targ‘ib qilishmoqda. Deyktik iboralarning eslatilgan guruhlariga xos semantik va pragmatik xususiyatlari va umuman ushbu guruhlarning ajratilishi qay darajada asosli ekanligi haqida batafsilroq to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

Ko‘plab tilshunoslar deyktik vositalar qaroriga kiruvchi so‘zlarning leksik ma‘nosida u yoki bu turdagi referentga ishora mavjudligini isbotlashga harakat qilgan. E.V.Poduchevaning ta‘rificha, “Olmoshlar-ma‘nosida nutqiy harakatga havola yoki nutqiy tuzilmaning borliq bilan munosabatiga, turiga ishora mavjud bo‘lgan so‘zlardir”. Olmoshlarning va bosqa turdosh turdagi deyktik belgilarning signifikativ mazmundan holi ekanligini, ularning referenti turg‘un bo‘lmasdan, balki nutq vaziyatiga nisbatan o‘zgarib turishini Emil Benvenist alohida qayd etgan. Uningcha, “Men” olmoshi ma‘nosini faqatgina ma‘lum bir nutqiy harakat ijrosiga nisbatan aniqlash mumkin va bu nutqiy harakat doimo yagona, alohida bo‘lib qoladi, takrorlanmaydi. Har bir nutqiy harakat alohida ob‘yekt bilan

bog‘liq bo‘lganligi sababli, “men” olmoshining referenti ham o‘zgarib turadi. Qisqasi, “men” shakli lisoniy nuqtai nazaridan faqatgina bajarilayotgan, ijro etilayotgan nutqiy harakatda mavjuddir.

Farang tilshunosi shaxs, zamon, makon ishora qilinayotgan ob‘yekt ko‘rsatkichlarining nutq kechayotgan vaqt bilan munosabatini men: bu yerda – u yerda; hozir-o‘shanda, bugun-o‘sha kun-kecha; arafada-ertaga-bir kundan so‘ng kabi tushunchalar qarama qarshiligida yuzaga keladigan hodisa deb hisoblaydi. Ammo ushbu turdagi iboralarning referenti ko‘pincha o‘ta yuzaki o‘z-o‘zidan ma‘lum bo‘lgan hodisa sifatida baholab kelinmoqda. Ushbu iboralarning ma‘no xususiyatlari “voqelik” yoki predmet hodisalarning ob‘yekt zamon va makonda joy olishi bilan bog‘liq emas. Aksincha, til tizimi ushbu ibora guruhlariga shaxslararo muloqot jarayonida yuzaga keladigan talab –vazifalarni bajarishni “buyuradi”. “lison voqelik bilan referent bog‘liqligidan mahrum bo‘lgan, doimo yangicha qo‘llanishga hozir bo‘lgan “ma‘nosiz” belgilar yaratilishi bilan bu masalani ham hal qiladi va bu belgilar so‘zlovchi tomonidan kechayotgan nutq faoliyatiga jalb qilinishi zahotiyoyq “to‘liq” ma‘noli belgilarga aylanadilar”.

Deyktik iboralar ma‘nosining nutq sub‘yekt- so‘zlovchining kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq holda o‘zgarib borishini o‘z paytida faylasuflar ham qayd etgan edilar. Bertrand Russell “men”, “bu”, “shu yerda”, “hozir” so‘zlarini asosiy egotsentrik so‘zlar sifatida ta‘riflab, ularning ma‘nosi zamon va makon o‘zgarishi bilan bog‘liq holda o‘zgarib turishini e‘tirof etgan: “hozir” so‘zi har bir qo‘llanishda vaqt kechishi davomiyligining ma‘lum bir darajasini anglatadi: “shu yerda” so‘zi, “men” ning har bir harakati natijasida joy oladigan alohida o‘rnini belgilaydi; “men” uni talaffuz qilayotgan har qanday shaxsni bildiradi”. O‘z ustoziga ergashgan L.Vitgenshteynning ta‘rifi ham shunga mos: “ “ Men”- biror bir shaxsning nomlanishi emas, “shu yerda” – ma‘lum bir joyni atamaydi, “bu”-nom emas ” (Vitgenshteyn, 1994). Shuning bilan bir qatorda, ayrim tadqiqotchilar deyksisning egotsentrik xususiyatini to‘lig‘icha e‘tirof etishga jur‘at etmaydilar. Bir nechta olimlar deyktik maydon markazini sen/siz, ya‘ni adresat egallashi mumkinligini aytishadi. Binobarin “Bir qadam oldinga!”, “O‘ngga buriling!” kabi buyruq nutqiy aktlari bajarilayotgan vaqtlarda asosiy e‘tibor buyruqni qabul qiluvchiga yo‘naltiriladi. B.Rassel ishlarida esa barcha turdagi egotsentrik so‘zlarning ko‘rsatish mazmunidagi ma‘nosini this “bu, shu” olmoshi vositasida tavsiflash mumkin, degan fikr mavjud. Uning fikricha, |I “Men” the biography to which this belongs “bu qaram bo‘lgan tarjimai hol” mazmunini bildirsa, here “bu yerda”- the place of this “buning o‘rni” va now “hozir” the time of this “buning vaqti” mazmunlariga ega. Balki ingliz faylasufining fikri mantiqan to‘g‘ridir, chunki barcha turdagi deyktik iboralar ko‘rsatish, ishora ma‘nosini ifodalaydilar hamda ko‘rsatish maydonining markazida so‘zlovchi shaxs turishi sababli ishoraning boshlang‘ich nuqtasi ham uning “ko‘z o‘ngida” turgan voqelik parchasidir. Ushbu voqelikning kommunikativ ifodasida “bu” ko‘rsatkichi asosiy o‘rinni egallaydi. Ammo mantiqiy mazmunning lisoniy ma‘noga muvofiq kelishi har doim ham kuzatilavermaydi. Mantiqiy idrok ko‘p bosqichli kontseptual tafakkur “ishlov” idan o‘tgandan so‘nggina lisoniy voqelikka aylanishi mumkin.

“Ma’no” tushunchasini “ob’yektning shaxs ongida aks topgan umumlashgan benuqson tasavvurdagi modeli” deb ta’riflagan psixolog V.F.Petrenko bu modelning shakl topishini oddiy faoliyat emasligini qayd qiladi: “ong belgilar vositasida voqelikni oddiygina takrorlamasdan, balki undagi sub’jekt uchun ahamiyatli bo‘lgan xususiyat va belgilarini ajratib, umumlashgan model qurilmasini yaratadi” (Petrenko, 1988)

Demak , lisoniy ma’no shakllanishi-murakkab jarayon. Ma’no shakllanishida voqelikdagi ob’yektning muhim xususiyat belgilarining aks topishi oddiy jarayon emas, balki bu xususiyatlar inson ijtimoiy faoliyati, tajribasi nuqtai nazaridan muhim bo‘lmog‘i darkor. Yanada aniqrog‘i, bu muhimlik, ahamiyatlilikning o‘zi ijtimoiy tajriba asosida yuzaga keladi. Psixolingvistlar A.A.Leontyevga ergashib, ma’noni “inson faoliyatining qiyofasi o‘zgargan shakli” deb ta’riflab, xato qilishmagan, chunki idrok etilayotgan ob’yektning xususiyatlari insonning ijtimoiy faoliyati jarayonida ko‘zga tashlanadi, farqlanadi. Lisoniy belgilar ma’nosi shakllanishida inson faoliyati, uning ijtimoiy tajribasi natijalari aks topishi, albatta, predmet mazmunidagi va boshqa to‘liq ma’noli so‘zlar mazmunida ravshanroq ko‘rinadi. Ammo buning bilan boshqa turdagi leksik birliklar lug‘aviy ma’noga ega emas deb ham bo‘lmaydi. Har bir lisoniy birlik , so‘zsiz, lug‘aviy ma’noga ega. Bundan deydik belgilar , shu jumladan , olmoshlar ham mustasno emas.

Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi N.Yu.Shvedova til lug‘at tizimining tabaqalanishi daraxt shaklida tus olishini uqtirib, ushbu daraxtning tepasi eng mavhum va umumlashgan (global) ma’no va mazmunga intilishini ta’kidlaydi. Mavhumlashtirilgan tushunchalar harakat yoki holat, harakat turi yoki hol, miqdor, me’yor, makon, zamon, chegara, maqsad, sabab kabilardir. “ Tilda ushbu tushunchalar va ularning doimiy o‘zgarishlarini doimiy ifodalsh uchun mo‘ljallangan so‘zlarning yopiq tizimi mavjud: olmoshlar guruhi aynan shu sinfga oid ” (Shvedova,Belousova 1995). Ayniqsa , muallifning keyingi ishida olmoshlar guruhidagi so‘zlar tizimining “yopiqligi” va barcha turdagi umumiy tushunchalarni ifodalshning boshlang‘ich nuqtasi ekanligi yanada ta’kidlanadi. Zero, “bu tizimning mavhumlik darajasi boshqa sinflarnikidan o‘ta ustun: u boshqa so‘zlar ma’nosi va o‘zaro munosabatlariga mazmun baxsh etadi. Olmoshlar guruhi – ma’noni mavhumlashtirishni ta’minlovchi vositadir”.

Shu jihatdan olganda, B.Rasselning barcha turdagi deydik iboralarning mazmunini this “bu” olmoshi vositasida tavsiflash borasidagi harakatini ham to‘g‘ri anglab, ma’qullash mumkin. Inson borliq idrokining asosiy me’yori va o‘lchov nuqtasidir, bunday idrok jarayoni doimo “antropometrik tamoyil” nazoratida kechadi, u o‘zi idrok etayotgan voqelik parchasiga “bu” ko‘rsatkichi bilan ishora qiladi. Ammo mantiqshunoslarning deydik iboralarni yagona bir maxrajga to‘plash va ularning ma’nosini alohida bir lisoniy birlik vositasida ta’riflash yo‘lidagi harakatlari tilshunoslarga unchalik ma’qul kelmaganligi ham ma’lum. Jumladan, B.Rassel barcha deydik iboralarni “this” –“bu” olmoshli iboralarga o‘zgartirish mumkinligi haqida gapirgan bo‘lsa, H. Rayxenbax esa I “men” olmoshi “men” so‘zi belgisini talaffuz qilayotgan shaxs” tuzilmasi vositasida tavsiflashni taklif qilgan.

Lisoniy tahlilni mantiq bilan bog‘lashda va nutqiy muloqotni tashkil etishda lisoniy belgilarning tabiati va ularning inson faoliyati uchun muhim bo‘lgan nutqiy muloqot matnida

20-Mart, 2026-yil

turgan o‘rni, mohiyatiga e‘tibor bermaslikning imkoni yoq. Masalan, “Men hozir 26 yoshdaman va o‘tgan yili uylanganman” va “ Men hozir 27 yoshdaman” tuzilmalarining zaminida bir xil propozitsiya turishi yoki turmasligini aniqlash uchun ushbu tuzilmalar qaysi kontekstda, muloqot sharoitida qo‘llanilayotganligini bilmoq kerak. Matn propozitsiyani “maxsuslashtiruvchi” , uni voqelantiruvchi vositadir. Pragmatikaning mantiqan semantikani ta‘minlashi, undan oldinroq harakatga kelishi ham xuddi shunda namoyon bo‘ladi. Shuni unutmash kerakki, muloqot juda murakkab jarayon bo‘lib, kommunikativ sharoitlarga ko‘ra turli xil bo‘ladi. Ijtimoiy vaziyatlardagi rasmiy holatlarda odamlar bir-birlariga nisbatan rasmiy iboralarni ishlatishga moyil bo‘lib bu holat xususan, bir -biri bilan yaqinda tanishgan insonlar o‘rtasida ham kuzatilishi mumkin. Insonlarning bir-biriga yaqinlik ko‘rsatishi ko‘pincha norasmiy so‘zlashuv jarayonida vaqtinchalik bo‘ladi va odobsizlik sanalmaydi. Quyidagi misol buning yaqqol ifodasidir: Misol uchun : *Bir kishi barga kirib, barmenga dedi:” Salom, birodar! Menga bitta ichimlik bergin, xo‘pmi?” (A man came into a bar and said to the waiter: “ Hi! Buddy! Give me some drink , would you?”)*

Garchi ular oldin hech qachon uchrashmagan bo‘lsalar ham, xaridor va ishchi o‘rtasidagi vaqtincha davom etayotgan munosabatlar uchun juda oddiy iboralarni ishlatgan. Bu shundan dalolat beradiki, turli ijtimoiy vaziyatlarda begonalarga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘lish ham samarali nutqiy muloqotni tashkil qilishning bir omilidir. Bunday muloqotlar ko‘ngilochar joylarda, ishxona, o‘quv binolari, kino va teatrlarda, bozor va savdo markazlarida, ko‘plab boshqa joylarda amalga oshishi mumkin. Bu vaziyatga G.Yule shunday ta‘rif bergan:

“Ijtimoiy masofa yoki yaqinlik sharoitida, boshqa odamning yuzi ijtimoiy jihatdan uzoq bo‘lib tuyulganda, uning yuziga e‘tibor berish ko‘pincha hurmat yoki hurmat nuqtai nazaridan tavsiflanadi. Boshqasi ijtimoiy jihatdan yaqin bo‘lganida, o‘xshash xabardorlikni ko‘rsatish ko‘pincha do‘stlik, o‘rtoqlik yoki birdamlik nuqtai nazaridan tasvirlanadi.¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Musayev “Nutqiy muloqotni shakllantirish omillari va uning asosiy xususiyatlari”. 1998. jdpu.uz.
2. “Til va nutq”. Ne‘matov X. , Bozorov A. Toshkent 1993.
3. Maqsudova M.A. “ Muloqot psixologiyasi”. Toshkent 2006. nauchniyimpuls.ru
4. Sh. Hamroyev “Zamon va yoshlar nutqi”. Toshkent 2020.
5. Aslonov I. N. “Ijtimoiy faoliyat va muomala Psixologiyasi”. Toshkent 2019. americanjournal.org
6. Brown P, Levinson S “Politeness” Cambridge, 1987
7. Lyons,J “Language, meaning and context”, 1981.
8. Levinson, S. C. 1983. *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press. Norwood, NJ: Ablex. 55–75.

¹ Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.